



VADUD MAHMUDNING MUNAQQIDLIK FAOLIYATI

Qoraboyeva Odinoxon

Farg'ona davlat Universiteti

Filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi

4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Vadud Mahmudning munaqqidlik faoliyati, uning o'zbek adabiy tanqidchiligidagi o'рни va ilmiy-estetik qarashlari tahlil qilinadi. Muallifning adabiy-tanqidiy merosi, ayniqsa, badiiy asarning shakl va mazmun uyg'unligi, til, uslub va estetik mukammallik masalalariga yondashuvi yoritiladi. Shuningdek, uning Cho'lpon, Abdurauf Fitrat va boshqa zamondoshlari ijodiga bergan baholari, mumtoz va zamonaviy adabiyotga oid qarashlari ham ilmiy asosda tahlil etiladi. Maqolada Vadud Mahmudning adabiy jarayondagi faol ishtiroki, uning tanqidchilik tamoyillari hamda o'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Vadud Mahmud, munaqqidlik faoliyati, adabiy tanqid, o'zbek adabiyotshunosligi, badiiy tahlil, estetik qarashlar, jadid adabiyoti, Cho'lpon, Fitrat, she'riyat, uslub, badiylik, tasavvuf, adabiy jarayon.

O'tgan asr o'zbek adabiyoti va teatr tanqidchiligida muhim o'rin egallagan siymolardan biri samarqandlik shoir, munaqqid hamda tilshunos olim Vadud Mahmud (1898–1976) hisoblanadi. XX asrning birinchi choragidagi Turkiston madaniy hayotida fidoyi ziyolilarning ulkan xizmatlari alohida o'rin tutadi. Ana shunday ma'rifatparvar avlod vakillaridan biri — Vadud Mahmud hisoblanadi. Vadud Mahmud 1898 yilda (ayrim manbalarda 1897 yil deb ham ko'rsatiladi, bu esa hijriy yilni milodiy yilga o'tkazishdagi tafovut bilan izohlanadi) Samarqand okrugining Yuqori Darg'om tumaniga qarashli Toyloq qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Mahmud Pirmuhammad imom bo'lgan (1905 yilda vafot etgan). Onasi Anbara (1934 yilda vafot etgan) esa farzandlari tarbiyasi bilan shug'ullangan.

Vadud Mahmud dastlab Samarqandda Abduqodir Shakuriy maktabida, so'ngra Ufadagi Oliy madrasada (1917–1918), Samarqand pedagogika kursida (1918), Moskvadagi V. Bryusov nomidagi Oliy adabiyot institutida (1925–1926) tahsil olgan. Shuningdek, u Toshkentdagi SAGUning iqtisod fakultetida (1923 yil) erkin tinglovchi sifatida qatnashgan. Shu bilan birga, Vadud Mahmud 1919–1925 yillar davomida o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullangan, Samarqand va Jizzax shaharlarida maorif sohasida rahbarlik lavozimlarida ishlagan. 1926–1927 yillarda "Maorif va o'qituvchi" jurnalida muharrir yordamchisi bo'lib faoliyat yuritgan. 1926–1929 yillar oralig'ida esa TajGIZda tarjimon hamda darsliklar tuzuvchisi sifatida mehnat qilgan.

U 1930 yilda sho'ro tuzumiga qarshi targ'ibot olib borganlikda ayblanib hibsga olinadi va "uchlik" qarori bilan uch yilga qamaladi. Qatag'on davrining asossiz ayblovlari tufayli Vadud Mahmud Arxangelsk viloyatidagi Kargopol qamoqxonasida 1937 yil 18 avgustdan



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

1954 yil 26 yanvargacha saqlanadi. 1960 yilda esa to'liq oqlanadi. Vadud Mahmud faoliyatining muhim bir qismi Tojikiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Rudakiy nomidagi Til va adabiyot instituti bilan bog'liq. U yerda ilmiy xodim sifatida ishlab, "Farhangi zaboni tojik" lug'atini tuzishda faol ishtirok etadi, mumtoz sharq she'riyati ustida ilmiy tadqiqotlar olib boradi hamda xotiralar yozadi. U 1976 yilda (aslida 1975 yil aprel oyida) vafot etgan.

Adabiyot maydoniga Samarqand adabiy muhiti orqali 1920-yillar arafasida kirib kelgan Vadud Mahmud bu jarayonda nihoyatda faol qatnashadi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Sadridin Ayni, Abdurauf Fitrat kabi adib va ma'rifatparvarlar davrasida tarbiya topadi va shakllanadi. Uning adabiy-tanqidiy hamda publitsistik maqolalari "Kambag'allar tovushi", "Zarafshon", "Turkiston", "Inqilob", "Maorif va o'qituvchi", "Yer yuzi" kabi gazeta va jurnallarda "Vov", "V.M.", "Vadud Mahmudiy", "Vadud Mahmud o'g'li" kabi taxalluslar bilan muntazam chop etib borilgan. U mumtoz sharq adabiyoti hamda zamonaviy adabiy jarayon haqida "Cho'lponning 'Buloqlar'i" (1923), "Hind ixtilolchilari" (1923), "Turk shoiri Ajziy" (1924), "Adabiy tanqidga bir nazar" (1924), "Alisher Navoiy" (1925), "Fuzuliy Bag'dodiy" (1925) kabi qator muhim maqolalar muallifidir.

O'zining chuqur bilim va teran tafakkuri tufayli u 1917 yilgi o'zgarishlardan so'ng yangi hokimiyat tizimiga jalb etiladi. Xususan, Samarqand viloyati maorif bo'limi mudiri lavozimida faoliyat yuritadi. Bu davrda "Bolalar tarbiyasi", "Maorif ishlari", "Maktablarda ahvol", "Maorifimiz", "Majburiy o'qish" kabi ko'plab maqolalar yozadi. Biroq uning ayrim ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik qarashlari sho'ro mafkurasi bilan har doim ham mos kelavermaydi. Ba'zan murosaga boradi, ba'zan esa tanqid ostida qoladi. 1927 yil 4-5 oktyabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan O'zbekiston madaniyat xodimlarining ikkinchi qurultoyida u "teskarichi" va "Cho'lpon tarafdori" sifatida ayblanib, majlis zalidan chiqarib yuboriladi.

Vadud Mahmud turli janr va mavzularda ijod qilgan bo'lsa-da, ayniqsa 1920-yillar adabiy jarayonida munaqqid va adabiyotshunos sifatida keng tanilgan.

Uning adabiy-tanqidiy maqolalarida asarning g'oyasi yoki mazmunidan ko'ra, avvalo uning nafisligi, ya'ni badiiylik darajasi, shakli, uslubi va tiliga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bois uning talablari ham nihoyatda yuqori bo'lgan. U she'rdagi musiqiy ohang, ruhiy ko'tarinkilik, chuqur iztirob va san'atkorona mukammallikni yuksak qadrlagan. V. Mahmudning tabiatidagi jo'shqinlik, maqolalaridagi izchillik hamda ilmiy xolislik ijod ahli e'tiborini tortgan. Zamondoshlari uning bu fazilatlarini ijobiy baholaganlar.

Alohida ta'kidlash joizki, o'z davrida Cho'lpon, Abdurauf Fitrat va Abdulla Qodiriy ijodiga xolis va haqqoniy baho bera olgan kam sonli tanqidchilardan biri ham Vadud Mahmud edi. U zamondoshlari ijodini baholar ekan, ba'zan keskin fikrlar ham bildirgan. Masalan, u o'z davridagi adabiyot haqida so'z yuritar ekan, nasrda Fitrat va Abdulla Qodiriyini, she'riyatda esa Cho'lponni yetakchi sifatida ko'rsatadi, ammo ularning ijodida ham kamchiliklar mavjudligini ochiq aytadi. Bunday dadil fikrlar ko'plab ijodkorlar va keyingi tadqiqotchilar orasida turli munozaralarga sabab bo'lgan.



“INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026”

Ilmiy manbalarni kuzatish shuni ko'rsatadiki, Vadud Mahmud ijodini o'rgangan deyarli barcha olimlar uning “Bu kungi she'rlarimiz va san'atkorlarimiz” nomli maqolasiga alohida e'tibor qaratganlar. Bu bejiz emas, albatta. Chunki mazkur maqolada o'sha davr hukmron mafkurasi nuqtai nazaridan “mos kelmaydigan” fikr va talqinlarni uchratish mumkin edi. Mazkur maqolada u mavzuni qadimiy adabiyotdan boshlab, mumtoz merosning o'ziga xos jihatlarini tahlil qiladi. Ayniqsa, uning tasavvuf falsafasi bilan chambarchas bog'liqligini va aynan shu falsafiy asos orqali san'at yuksak darajaga ko'tarilganini ta'kidlaydi. Shuningdek, yangi adabiyotning shakllanish jarayoni, shakl va mazmun uyg'unligi, ijodkor va jamiyat o'rtasidagi munosabat, she'riyat texnikasi hamda umuman go'zal san'at haqidagi qarashlarini bayon etadi. Umuman olganda, Vadud Mahmud 1920-yillardayoq zamonaviy adabiyotdan yuqori badiiylilik, mukammal shakl va mazmun talab qilgan holda, milliy mumtoz adabiyotimizni ilmiy asosda tahlil qilish yo'lini boshlab bergan yetuk adabiyotshunoslardan biri sifatida e'tirof etiladi. U she'riyat tabiatini izohlar ekan, unda ikki yo'nalish — haqiqiy va majoziy ishq mavjudligini alohida qayd etadi.

Haqiqiy ishq — ruhning umumiy borliqqa singib ketish dardidir, u eng yuksak va orifona holat hisoblanadi. Majoziy ishq esa insonning oddiy nafsoniy ehtirolari bilan bog'liq bo'lib, tabiiy va umumiy mayl sifatida namoyon bo'ladi. Demak, bu ikki turdagi ishq ham manbai va mohiyati jihatidan hayotiy hamda insoniy xarakterga ega. Chunki inson ongli mavjudot sifatida o'z yaratilishi va yashash maqsadini anglashga intiladi, shu bilan birga tabiiy mavjudot sifatida jismoniy ehtiyoj va istaklarga ham bog'liqdir.

Aynan shu ikki xil mayl natijasida ikki xil “ishq” va unga mos ravishda ikki xil “she'riy yo'nalish” yuzaga kelgan: birida ilohiy, haqiqiy ishq madh etilsa, ikkinchisida esa majoziy ishq tasviri beriladi. Sharq mumtoz adabiyotida, xususan Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida ishq uch turga — haqiqiy, majoziy va nafsoniyga ajratiladi. Vadud Mahmud esa bu tasnifni biroz kengroq talqin qilib, majoziy ishq doirasiga nafsoniy ishqni ham kiritadi. Aslida esa shar'iy nikoh bilan yakun topadigan nafsoniy ishq bilan yuksak ruhiy fazilatga ega ishq o'rtasida sezilarli farq mavjud.

Shunga qaramay, Vadud Mahmud haqiqiy ishqni kuylagan buyuk shoirlar sifatida Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Mashrab kabi ijodkorlarni misol qilib keltiradi. Bu orqali u mumtoz adabiyot namoyandalarining ijodini islom va tasavvuf falsafasi asosida tahlil qiladi. Afsuski, keyinchalik bunday yondashuv siyosiy sabablar tufayli cheklab qo'yildi va adabiyotga asosan mafkuraviy nuqtai nazardan baho berish ustuvor bo'lib qoldi. 1920-yillarda o'zbek adabiyotshunosligi hali shakllanish jarayonida edi. Har bir munaqqid yoki tadqiqotchi o'ziga ma'qul bo'lgan falsafiy qarashlar va ilmiy maktablarga tayanib ish olib borardi. Bu jarayonda Vadud Mahmud o'ziga xos yo'l tutib, ijodkor dunyoqarashi, islom va tasavvuf falsafasi, asarning tili va uslubi hamda uning estetik mukammalligiga alohida e'tibor qaratdi.

U jahon adabiyoti tajribasiga ham murojaat qilib, Rabindranath Tagore, Mahatma Gandhi va ayniqsa Edgar Allan Poe ijodidan ilhom oldi. Xususan, Edgar Poning ijodiy tajribalariga bag'ishlangan “Ijod siri” haqidagi tahlillarida badiiy asar yaratish jarayoni faqat



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

ilhom bilan cheklanmasligi, balki mavzu tanlash, uslub ustida izchil ishlash zarurligini chuqur yoritadi. Shuningdek, badiiy asar o'quvchi qalbiga ta'sir etishi, uning ruhiyatini yuksaltirishi kerakligi ta'kidlanadi. She'riyatda ta'sir kuchi asosan go'zallik orqali yuzaga chiqadi: inson go'zallikni his qilganida uning ruhiyati yuksaladi, ichki dunyosi boyiydi.

Amerikalik adib Edgar Allan Poening bu teran fikrlari Vadud Mahmudning nozik didi va estetik qarashlariga juda mos keladi. U 1920-yillar o'zbek she'riyatini tahlil qilgan ekan, ayniqsa mavzu va shakl uyg'unligi, vazn va ohang mutanosibligi, misralarning silliqdigi hamda umumiy she'r texnikasiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, ko'plab shoirlar aynan shu jihatlarga yetarli darajada ahamiyat bermagan. Ya'ni, mavzu bilan tanlangan shakl, vazn va ohang o'rtasida uzviy bog'liqlik yetishmaydi. Bu uyg'unlikni esa u Abdurauf Fitrat va Cho'lpon ijodida qisman bo'lsa-da kuzatadi.

Keyinchalik u o'z fikrlarini yanada mustahkamlash maqsadida Sharq mumtoz adabiyotiga murojaat qiladi. Xususan, Umarxon Amiriy ijodidan namunalar keltirib, uning she'riyatidagi til silliqdigi, ohangdorlik va yuksak tasavvufiy ruhni alohida ta'kidlaydi. U Amiriy g'azallarini Edgar Allan Poe asarlari bilan qiyoslab, mavzu jihatidan ulardagi farqni ochib beradi: agar Poe asarlarida qayg'u asosan insoniy yo'qotish bilan bog'liq bo'lsa, Amiriyda u kosmik, ilohiy birlikka erishish armoni bilan ifodalanadi.

Shundan so'ng munaqqid san'atkorlik mahoratining sirini izohlashga o'tadi. Unga ko'ra, bu — so'z tanlashdagi noziklik, ohangdorlik va tovushlarning uyg'unligida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Alisher Navoiy she'riyatidagi tovushlar uyg'unligini misol qilib keltirib, harflarning jarangdorligi orqali tasvir kuchayishini ko'rsatadi. Bu hodisa G'arb adabiyotshunosligida "alliteratsiya", Sharq adabiy ilmidagi esa "tavzi" deb yuritiladi. Bunday tahlillar shuni ko'rsatadiki, Vadud Mahmud badiiy asarni chuqur estetik asosda tahlil qila oladigan, so'z sehri va uning ruhiy ta'sirini teran his etgan adabiyotshunos edi. U nafaqat nazariy bilimga ega, balki go'zallikni anglash va uni ilmiy asosda izohlash qobiliyatiga ham ega bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, Cho'lpon va Abdurauf Fitrat kabi ijodkorlar tanqid ostida bo'lgan davrda, ularning ijodini xolisona baholagan, tasavvufiy merosni qadrlagan va ilmiy-estetik yondashuvni ilgari surgan olim sifatida Vadud Mahmud alohida ajralib turadi. Uning "Bu kungi she'rlarimiz va san'atkorlarimiz" maqolasi o'zbek adabiy tanqidchiligi shakllanishida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, uning jadid adabiyotining yirik vakillaridan biri — Siddiqiy Ajziy haqidagi "Turk shoiri Ajziy" maqolasi ham muhim ahamiyatga ega. Bu tadqiqotda u she'rdagi obrazlar, ramzlar va tashbehlarni chuqur tahlil qilib, ularning an'anaviy ma'nodan chiqib, ijtimoiy mazmun kasb etganini ko'rsatadi. Masalan, Ajziy she'riyatidagi "hijron", "ishq", "husn" kabi tushunchalar endi faqat shaxsiy tuyg'ularni emas, balki xalq va millat ruhiyatini ifodalash vositasiga aylanganini ta'kidlaydi.

Masalan, quyidagi baytda gul obrazi orqali vatan timsoli yaratiladi va u oddiy go'zallik emas, balki fojiviy tarixiy haqiqat — nohaq to'kilgan qon bilan bog'lanadi:

"Bu gulshan sahnida gul yafrog'i rangin gumon etmang,
Qizormish xuni nohaq rangidin xoki vatan — bu!"



“INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026”

Bu kabi tahlillar Vadud Mahmudning badiiy tafakkuri naqadar teran va o‘z davri uchun ilg‘or bo‘lganini yaqqol namoyon etadi.

Mazkur baytda gulning qizil rangi oddiy bog‘ gullarining latofatini emas, balki fojiviy bir haqiqatni ifodalaydi. Bu rang yorning husniga qiyoslangan an’anaviy tasvirdan ham ancha uzoq bo‘lib, shoir tasavvurida “gulshan” — Vatan tuprog‘i sifatida namoyon bo‘ladi. Bu tuproq esa nohaqlik, zulm va adolatsizlik oqibatida qonga bo‘yalgan, iztirobli manzarani aks ettiradi. Bunday obrazning yuzaga kelishiga jamiyatdagi tengsizlik va zulm muhitining kuchayishi sabab bo‘lgan. Xuddi shu ruh 1920-yillar publitsistikasida ham yaqqol seziladi. Masalan, “Oziyolik” taxallusi bilan yozilgan maqolalarda xalqning “vasiylik” ostida ezilishi, uning haq-huquqlaridan mahrum etilishi keskin tanqid qilinadi. Bu fikrlar o‘sha davr ijtimoiy hayotidagi murakkab va ziddiyatli holatlarni ochib beradi.

Bu iztirob va norozilik kayfiyati Cho‘lpon ijodida ham kuchli aks etgan. Uning she‘rlarida xalqning ezilgan holati, zulmga qarshi ichki isyoni ochiq ifodalanadi. “Qo‘zg‘alish” kabi asarlarida u bevosita zulmga qarshi murojaat qilib, ozodlik g‘oyasini ilgari suradi. Siddiqiy Ajziy esa bunday fojiviy holatni ramziy obrazlar orqali ifodalaydi: qizil gul — qon, bulut — ma‘rifatni to‘suvcchi to‘siq, yulduz — xalq boshiga tushgan kulfat timsoliga aylanadi. Bu esa an’anaviy obrazlarning yangi, ijtimoiy ma‘no kasb etganini ko‘rsatadi.

Vadud Mahmud aynan shu jihatga alohida e‘tibor qaratib, Ajziy she‘riyatini ijtimoiy muammolar bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Uning ta‘kidlashicha, shoir har bir voqelikdan xalqning dardini izlaydi va uni badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. Shuningdek, Vadud Mahmud “millat” tushunchasiga ham o‘ziga xos izoh beradi. Uning talqinida bu tushuncha hozirgi zamondagi siyosiy ma‘nodan ko‘ra kengroq bo‘lib, islomiy birlikni ham o‘z ichiga oladi. Bu qarash o‘sha davr ziyolilari orasida keng tarqalgan edi. Ajziyning “millat taqdiri” haqidagi iztiroblari uni amaliy faoliyatga undaydi: u maorif, maktab ishlari bilan shug‘ullanadi, xalq ruhiyatini ifodalovchi she‘rlar yozadi. Vadud Mahmud esa bunday fidoyi ijodkorlarni qadrlab, ularning an‘analarini davom ettiradi. Vadud Mahmudning Cho‘lpon ijodi haqidagi qarashlari ham alohida ahamiyatga ega. U “Buloqlar” to‘plamiga yozgan taqrizida bu asarni o‘zbek adabiyotiga yangi ruh va yangi ohang olib kirgan asar sifatida baholaydi. Uning fikricha, bu to‘plamda o‘zbek xalqining ichki kechinmalari, ruhiyati va til imkoniyatlari yorqin namoyon bo‘lgan.

Shuningdek, u teatr san‘ati masalalariga ham jiddiy e‘tibor qaratadi. Abdurauf Fitratning “Chin sevish” va “Hind ixtilolchilari” asarlariga yozgan taqrizlarida sahna madaniyati, aktyorlik mahorati va tomoshabin muammolarini tahlil qiladi. Uning fikricha, asarning muvaffaqiyati nafaqat matnga, balki sahnalashtirish sifati va moddiy sharoitlarga ham bog‘liq. Masalan, “Chin sevish” spektakli haqida fikr yuritir ekan, u teatrning moddiy ahvoli, aktyorlarning tayyorgarligi va tomoshabin madaniyatidagi kamchiliklarni ochib beradi. Shu bilan birga, asarning badiiy qimmatini yuqori baholab, uning obro‘sigga putur yetmasligini istaydi. “Hind ixtilolchilari” dramasi tahlilida esa u asarni san‘at mezonlari asosida baholash zarurligini ta‘kidlaydi. Uningcha, haqiqiy tanqid asarning kuchli tomonlarini ochib berish bilan birga, kamchiliklarini ham ko‘rsatishi kerak. Umuman



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "

olganda, Vadud Mahmud o'z maqolalarida shakllanib borayotgan ilmiy-estetik qarashlarini izchil namoyon etadi. U adabiy jarayonga sergak nazar bilan qarab, noto'g'ri talqinlarga qarshi fikr bildiradi va o'zi anglagan haqiqatni himoya qilishga intiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vadud Mahmud. Bu kungi she'rlarimiz va san'atkorlarimiz. "Maorif va o'qituvchi" jurnali, 1925 yil, 5-6, 7-8-sonlar.
2. Vadud Mahmud. Bu kungi she'rlarimiz va san'atkorlarimiz. "Maorif va o'qituvchi" jurnali, 1925 yil, 5-8-sonlar.
3. Tursunqul. Siddiqiy to'g'risida mulohazalarim. "Maorif va o'qituvchi" jurnali, 1928 yil, 3-son.
4. Vadud Mahmud. Bu kungi she'rlarimiz va san'atkorlarimiz. "Maorif va o'qituvchi" jurnali, 1925 yil, 5-8-sonlar.
5. Oziyolik. Og'izda emas, amalda bo'lsin. "Qizil bayroq" gazetasi, 1922 yil, 11-avgust.
6. Vadud Mahmud. Turk shoiri Ajziy. "Inqilob" jurnali, 1924 yil, 11-12-sonlar. O'sha manba.
7. Ne'mat Hakim. O'zbek adabiyotida tanqid va adabiy muhokamalar. "Turkiston" gazetasi, 1924 yil, 25-iyun.
8. Hamid Olimjon. Fitratning adabiy ijodi haqida. Tanlangan asarlar, 5 jildlik, 5-jild. Toshkent, 1972, 115-116-betlar.
9. Vadud Mahmud. Chin sevis. "Qizil bayroq" gazetasi, 1921 yil, 22-sentabr.
10. Vadud Mahmud. Chin sevis. "Qizil bayroq" gazetasi, 1921 yil, 22-sentabr.